

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
TABIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

KIMYO

С.Ш.Кабиров, М.Б.Холиков

Технологические методы переработки фруктов и овощей..... 226

В.К.Boboyev, N.N.Yusupova

Yangi O'zbekistonda chorvachilikni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish istiqbollari 230

S.S.Toyirov

O'zbekiston qishloq xo'jaligining texnika bilan ta'minlash va undagi dastlabki muammolar 233

M.A.Mirzayeva, N.I.Teshaboyev, M.Z.Mamadaliyev

Pomidor o'simligining biologik xususiyatlarini o'rganish..... 237

I.I.Musayev, A.T.Turdaliyev, A.A.Ahmadjonov, Y.H.Muhammadov

Och tusli bo'z tuproqlar unumdorligi va ularda uzum hosildorligi 241

S.X.Zakirova, Z.M.RajavaliyevaFarg'ona viloyatining eskidan sug'orilgan tipik bo'z tuproqlari va malboro navli malina (*Rubus idaeus*) yetishtirish' 246

GEOGRAFIYA

X.S.Mirzaaxmedov

Farg'ona iqtisodiy rayoni investitsion muhiti (iqtisodiy geografik tahlil)..... 253

D.A.Toymbayeva

Shamollarni o'rganish va tadqiq etishda geoaxborot tizimlari (Sirdaryo viloyati hududida misolida)..... 262

Sh.X.Turdiboyeva

Qadamjoylar va ziyoratgohlarda turizm va rekreatsiyani rivojlantirish istiqbollari (Farg'ona vodiysi misolida) 267

I.I.Muxitdinov

Kriminogen vaziyatni shakllantiruvchi omillar va ularning tasnifi (Farg'ona viloyati misolida) 273

R.T.Pirnazarov

O'rta Osiyo to'g'onli ko'llarining suv toshqini xavfini genetik-geomorfologik baholash asoslari 278

K.Khamraev

Territorial organization and development prospects of the food industry in Samarkand region.... 285

EKOLOGIYA

Н.Р.Закирова, М.К.Юлдашев

Инновационная "Проблемная" технология в образовании: применение на уроках экологии..... 290

N.R.Alimkulov, Sh.G.Qarshiboyeva, G'.D.Jangirov

Iqlim o'zgarishi sharoitida Mirzacho'l litogen va gidroiqlimiy muhitining agrolandshaftlar shakllanishidagi o'rni 294

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov

Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi..... 302

M.U.Mahmudov*Rhynococris iracundus* (Heteroptera: Reduviidae) turining Farg'ona vodiysida tarqalishi va biologik kurashdagi o'rni 306

ILMIY AXBOROT

M.X.Akbarova, D.Sultonov, Z.A.Yusupova, N.S.Salimova, F.F.MahmudovHayotini ilm-fan va ta'limga bag'ishlagan fidoyi olim, mehribon ustoz (*Valijon Mahmudov tavalludining 75 yilligiga bag'ishlanadi*) 302



UO'K: 338.48:913.3(575.11):394.7

**QADAMJOYLAR VA ZIYORATGOHLARDA TURIZM VA REKREATSIYANI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA)****ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И РЕКРЕАЦИИ В МЕСТАХ ПАЛОМНИЧЕ-
СТВА (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)****PROSPECTS FOR DEVELOPING TOURISM AND RECREATION IN STEPS AND SITES
OF PILGRIMAGE (IN THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY)**

Turdiyeva Shaxloxon Hakimjon qizi 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysida joylashgan qadamjolar va ziyoratgohlarning turizm va rekreatsion salohiyati tahlil qilingan. Ziyorat va rekreatsion turizmning o'zaro bog'liqligi, ularning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada Farg'ona vodiysining yirik ziyoratgoh va qadamjolari, ularning shakllanishidagi etakchi omillar hamda mavjud tabiiy va tarixiy yodgorliklar haqida ham tahliliy ma'lumot berilgan. Shu bilan birga, ziyoratgohlar asosida turizmni rivojlantirish orqali hududning ma'naviy, iqtisodiy va rekreatsion salohiyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация

В статье анализируется туристско-рекреационный потенциал святынь и мест паломничества Ферганской долины. Раскрывается взаимосвязь паломничества и рекреационного туризма, их социальное, культурное и экономическое значение. Представлены аналитические данные об основных святынях и местах паломничества Ферганской долины, ведущих факторах их формирования, существующих природных и исторических памятниках. Разработаны рекомендации по повышению духовного, экономического и рекреационного потенциала региона посредством развития туризма, ориентированного на святыни.

Abstract

The article analyzes the tourism and recreational potential of the shrines and pilgrimage sites of the Fergana Valley. It reveals the relationship between pilgrimage and recreational tourism, their social, cultural and economic significance. It presents analytical data on the main shrines and pilgrimage sites of the Fergana Valley, the leading factors in their formation, existing natural and historical monuments. Recommendations have been developed to increase the spiritual, economic and recreational potential of the region through the development of tourism focused on shrines.

Kali so'zlar: Qadamjolar, ziyoratgohlar, turizm salohiyati, rekreatsion turizm, madaniy meros, diniy ziyorat, mahalliy turizm.

Ключевые слова: священное место, места паломничества, туристический потенциал, рекреационный туризм, культурное наследие, религиозное паломничество, местный туризм.

Key words: sacred place, pilgrimage sites, tourism potential, recreational tourism, cultural heritage, religious pilgrimage, local tourism

KIRISH

O'zbekiston qadimiy tarixiy obidalar, ziyoratgohlar va qadamjolarga boy yurtidir. Bu joylar nafaqat diniy, balki madaniy, tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. So'nggi yillarda respublikamizda turizm sohasining jadal rivojlanishi bilan birga ziyorat turizmi va rekreatsion turizm turlari ham alohida e'tibor markazida turibdi.

Ziyoratgohlar va qadamjolar odatda inson ruhiyati, e'tiqodi va ichki dunyosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularga tashrif buyurish nafaqat ma'naviy poklanish, balki sog'lomlashtirish va dam olish maqsadida ham amalga oshiriladi. Shunday ekan, ushbu maqolada qadamjolar va ziyoratgohlarda turizm hamda rekreatsiyani rivojlantirishning dolzarbligi, hozirgi holati, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar tahlil qilinadi.

Ziyorat turizmi – bu diniy obidalar, muqaddas qadamjolar, mashhur avliyo va olimlar qabrlarini ziyorat qilish orqali ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan turizm turi hisoblanadi. Bu turizm turi asosan Islom, Xristianlik, Buddizm kabi yirik dinlar doirasida keng tarqalgan.

Rekreatsioon turizm esa, asosan, odamlarning jismoniy va ruhiy tiklanishini ta'minlash, sog'lomlashtirish va dam olishni ko'zda tutadi. Bu turizm turi sanatoriyalar, kurortlar, tog'li hududlar va tabiat qo'ynida faoliyat yuritadi.[5]

O'zbekiston sharoitida ziyoratgohlar ko'pincha rekreatsioon makon sifatida ham xizmat qiladi, chunki ziyoratgohlarning aksariyati tabiat qo'ynida, tog' bag'rida yoki muhitning tinch, osoyishta joylarida joylashgan bo'ladi.

So'nggi yillarda hukumat tomonidan turizm sohasi, ayniqsa, ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekiston uchinchi renesans davrida davlatimizning ichki turizmini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlari prezidentimizning farmon va qarorlari, vazirlar mahkamasi ishlab chiqqan qarorlar rivojlanishga keng yo'l ochib bermoqda. Shu jumladan, mehmonxonalar, mehmon uylari vaqtincha tunab qolish joylari umumiy ovqatlantirish korxonalari turizmga transport xizmatlariga keng imkoniyatlar ochib berildi.

Hukumat qaror va farmonlarida ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari, ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar, O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida, mahalliy aviaqatnovlar va ichki turizmni, mintaqaviy aviatashuvlarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari va ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash bo'linmalari tomonidan shartnoma asosida pulli xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash to'g'risida ko'rsatib o'tilgan.

Turizm o'zining ko'p qirrali turlari bilan barcha sohalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritib kelayotgan sohalaridan biridir. Ichki turizm iqtisodiyotning ko'pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug'diradi.

Jumladan, mehmonxona va mehmon uylari, umumiy ovqatlantirish korxonalari, transport xizmatlari, kommunal uy xo'jaliklari, yo'l qurilish, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo tarmoqlari va servis sohalaridir. Ichki turizmni rivojlantirish bir vaqtning o'zida o'ziga xos dam olish, ko'ngil ochar maskanlar industriyasini o'z ichiga oladi. Turizmga asosiy xizmatlar qo'shimcha xizmatlar mavjud bo'lib asosiy xizmatlarga:

- kutib olish xizmatlari;
- joylashtirish xizmatlari;
- ovqatlantirish xizmatlari;
- transport xizmatlari;
- ekskursiya xizmatlariga bo'linadi.

Har bir xizmat infrastrukturasi mukammal shakllanganda turistlarda muammolar kuzatilmaydi. Yana qo'shimcha xizmatlar mavjud, ular ham jarayonlarda bevosita ishtrok etadi. Kutib olish xizmatlariga demak, masofalardan turib ishlash tushuniladi. Turfirmadan mas'ul xodim turistni kutib olishga aeroportga borishi yo'l infratuzilmasini, aeroport infratuzilmasini va transport infratuzilmasini xalqaro va ichki standartlarga javob berishini talab qiladi.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda muqaddas ziyoratgoh va qadamjolarining shakllanishi va Diniy turistik obyektlar, xususan, ziyoratgohlarning joylashuvi, mintaqalarda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini baholash bilan Y.I.Ahmadaliyev, G'.R.Pardayev, S.I.Abdullayev, A.Nizomov, M.P.Boltaboyev, M.Q.Papdayev, I.C.Tuxliyev, G'.H.Qudpatov, N.Tuxliyev, B.N.Navro'z-Zoda, T.Abdullayeva, M.M.Muhamedov, D.K.Usmonova, M.Hoshimov, A.Nopchayev, B.X.To'payev, B.Sh.Safarov M.T.Aliyeva, Sh.P.Fayziyeva, Q.To'rayev Sh.Shomurodova, M.Mahmudovlar shug'ullanishgan.

Farg'ona vodiysi aholisi orasida diniy qadriyatlarning, xususan, ziyorat turizmining jamiyat hayotidagi o'rni (Abdulahatov, 2008) ziyorat turizmining ijtimoiy-ma'naviy va ekologik ahamiyati, ruhiy poklanish, ijtimoiy birdamlik va qadriyatlar bilan uzviyligi hamda hudud iqtisodiyotiga ta'siri kabi jihatlari ilmiy asosda ochib berilgan.

Farg'ona vodiysi hududida turizm sohasining iqtisodiy salohiyati (Boyturnayev, 2023) va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlar sifatini

GEOGRAFIYA

oshirish va hududlararo kooperatsiyani kuchaytirish zarurati kabi masalalar hamda Farg'ona vodiysi turizm salohiyatini real statistik ko'rsatkichlar asosida baholash mezonlari ishlab chiqilgan.

"Shohimardon – muqaddas maskan" ekanligi (Sayfi Kamol, 2019) mahalliy ziyoratgohlarning tarixiy-madaniy manbalari chuqur yoritilgan. Ziyoratgohlarning qadimiyligi, xalq e'tiqodidagi o'рни va rekreatsion imkoniyatlarini ochib berilgan.

Milliy qadriyatlar asosida ziyorat turizmini rivojlantirish, (Rahmonova, 2022) rekreatsion resurslardan samarali foydalanish hamda bu sohaning regionlar kesimidagi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan, hamda tabiiy-geografik omillarning turizmga ta'siri, iqlimiy sharoitlar va landshaftlarning ziyorat turizmi bilan integratsiyasi ochib berilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng go'zal va madaniy jihatdan boy hududlaridan biri hisoblanadi. Bu erda qadimiy tarixiy va diniy yodgorliklar, qadamjolar va ziyoratgohlar ko'p bo'lib, ular nafaqat mahalliy aholining ma'naviy hayotida muhim ahamiyatga ega, balki turizmni rivojlantirishda ham katta imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, diniy turizm va rekreatsion xizmatlar rivojlanishi uchun Farg'ona vodiysi katta istiqbollarni o'zida mujassamlashtirgan.

Farg'ona vodiysi qadimdan turli din va e'tiqod markazi sifatida tanilgan. Bu erda:

- Avliyolar maqbaralari;
- Muqaddas ziyoratgohlar;
- Qadimiy madrasalar va tarixiy obidalar mavjud.

Bu ziyoratgohlar mahalliy va xalqaro sayyohlar uchun jozibador markaz bo'lib xizmat qiladi.

Chilmaxram ziyoratgohi – Beshariq tumanining Sirdaryo sohillarida joylashgan ushbu sakral obyekt adirning 50metrdan yuqori bo'lgan tepa qismida joylashgan kichik g'or va bir necha kichikroq g'orlar to'plamidan iborat. G'or ichida chillaxaram degan avliyoning qabri joylashgan. Bu mozorga kelib ziyorat qiluvchilar farzand tilab Qurbonlik qiladilar, so'ngra pastga tushib Sirdaryoning suvida cho'milib poklanadilar.

"Sangi navishta ziyoratgohi" – Bu ziyorat joyi So'x tumanining Ravon qishlog'ida joylashgan sakral obyekt bo'lib, uning mazmuni –"Yozuvli tosh" ma'nosida kelib, yo'l yoqasida osilib turgan qoyatoshlarda yozuvlar bo'lgan. Bu erga Abdulloh eshon ismi avliyo dafn etilgandan so'ng muqaddas ziyoratgohga aylangan. Aytishlariga qaraganda, qishloqqa suv kelmay qolganda Abdulloh eshon ravon oqqin deya suvga qarab duo o'qibdi, shundan so'ng suv ravon oqa boshlabdi. Qishloq nomi shu tarzda Ravon deb atala boshlabdi.

"Shayhi Kulolon ziyoratgohi" – So'x tumanining Qalacha qishlog'ida joylashgan. Ikkinchi nomi Shayxi Kulla. Rivoyatga ko'ra ul zot shu erdagi g'orda g'oyib bo'lgan. Avvalgi vaqtlarda u erdan tovush eshitilib turgan. Odamlar ko'ziga oq kiyimda navqiron holda ko'ringan.[1]

"Xo'ja Ilg'or" (Muhammad al-Hanafiya) – ziyoratgohi Rishton tumanining Zarariq qishlog'ida joylashgan bo'lib, Xo'ja Ilg'or maqbarasi chillaxonasi va masjiddan iborat. Rivoyatlarga ko'ra, Hazrat Alining farzandi Muhammad al-Hanafiya G'ayridinlar bilan hozirgi mozor o'rnida jang qilayotib behisob dushman qurshovida qoladi. Shau payt g'oyibdan lashkar paydo bo'lib, Muhammad al-Hanafiya madadga keladi va islom qo'shini zafar qozonadi. "Ilg'or" bu g'oyibdan paydo bo'lish degan ma'noni anglatgani uchun ziyoratgoh Xo'ja Ilg'or nomini olgan ekan. Xalq orasida Muhammad al-Hanafiya bilan bog'liq quyidagi rivoyat saqlanib qolgan. Unga ko'ra Hazrat Ali shu erlik Bibi Hanifa ismli qizga uylangan vaqt Makka shahriga o'tlanadi. Hazarat Ali ketar chog'i uni qayerdan izlash kerakligini va agar farzand ko'rsa, farzandi sifatida uzugini taqib qo'yishini tayinlab, o'z uzugini tashlab ketadi. Bibi Hanifa oy kuni etib o'g'il ko'radi va ismini Muhammad al-Hanafiya deb ataydi. Muhammad al-Hanafiya kundan-kun o'sib, baquvvat, jasur bola bo'lib etishadi. Tengqurlarining birontasi u bilan teng kela olmaydi. Kurashda yiqilgan bolalar alamlariga chiday olmay uni etimcha deb haqoratlaydilar. Muhammad al-Hanafiya onasining oldiga kelib, otasini so'raydi. Onasi uning otasi Hazrat Ali ekanligini aytib, qo'lga otasi qoldirgan uzukni beradi. Muhammad al-Hanafiya uzukni taqib, otasini izlab, Makka tomon yo'l oladi. Muhammad al-Hanafiya Makkaga kelib shaharda kurashib turgan ikki paxlavon yigitni ko'rib qoladi va ular bilan maydonga tushadi. Bu ikki yigit Hazrat Alining farzandlari Imom Hasan va Imom Husayn bo'lib, ularning kurashini otasi Ali bir chetda kuzatib turgan ekan. Ikki azamat farzandining begona, notanish yigitdan yiqilganini ko'rib, Hazrat Ali ham kurashga tushadi.[1]

Otasi ekanligidan bexabar bo'lgan Muhammad al-Hanafiya Hazrat Ali bilan kurashishga rozi bo'ladi. Hazrat Ali kurasha turib nogahon ko'zi yigitning uzugiga tushadi va paxlavon o'z farzandi ekanligini anglaydi. Hazrat Ali Muhammad al-Hanafiyaning asta erga qo'yib, "Men sening padari buzrukvoring bo'laman" deb uni bag'riga bosadi. Buni eshitgan Muhammad al-Hanafiya o'z otamni behurmat qilib kurashga tushibman deb afsus nadomatlar bilan ortiga qaytgan ekan. Muhammad al-Hanafiya nomi bilan bog'liq ziyoratgohlarda aynan "yashiringan imom" to'g'risidagi rivoyatlarga duch kelamiz.

"Imom ota ziyoratgohi"-Imom ota qishlog'ida joylashgan. Mahalliy aholi orasida saqlanib qolgan rivoyatga ko'ra, Imom ota (Muhammad al-Hanafiya) o'lmagan shu erdagi g'orga kirib g'oyib bo'lgan. Shu sabdan ziyoratgoh "Imom ota g'ori" deb nom olgan.[1]

Farg'ona vodiysi tabiiy go'zalligi, madaniy boyliklari va iqlim sharoiti bilan ham mashhur. Turizm sohasi hudud iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Ayniqsa, qadamjolar va ziyoratgohlar turizmi quyidagi jihatlarni o'zida jamlaydi:

- Ma'naviy va diniy ehtiyojlarni qondirish;
- Hududning madaniy merosini saqlash va targ'ib qilish;
- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish;
- Dam olish va sog'lomlashtirish imkoniyatlarini yaratish.
- Rekreatsion turizm esa, aholining sog'lom hayot tarzini qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi, ayniqsa, tabiiy shifobaxsh joylar, tog'li hududlar va dam olish maskanlari mavjud.

Shohimardon-Farg'ona vodiysining so'lim tog' qishloqlaridan biri bo'lib, u Farg'ona shahridan 60 km janubda, Oloy tog' bag'rida joylashgan.

Shohimardon qishlog'ining o'zida bir necha ziyoratgohlar bo'lib ular: 1. Ellik paysaki tosh; 2. Ko'ktosh zoyoratgohi; 3. Kichik mozor (Shoh Tolib mozori); 4. Katta mozor (Hazrat Ali mozori); 5. Umar Ummiya mozori; 6. Chakka tomar ziyoratgohi.

"Shohimardon Oqsuv va Ko'ksuv singari ikki daryoning qo'shilgan joyida joylashgan. Bu erga dafn etilgan avliyoni Shohimardon, ya'ni "Mardlar shohi" deb atashib, bu nom uning laqabidir. Ba'zilar uni birinchi xalifalardan bo'lmish Ali ekanligi (sahoba Ali ibn Abu Tolib, milodiy 661 yili vafot etgan) aytiladi. Muzor tog' tizmasining baland, g'oyat go'zal, xushmanzara qismiga joylashgan bo'lib, oldi tomoni qiyalikka qarab tutadi. Muzor yonida esa masjid joylashgan. Avliyo qabri esa uncha kata bo'lmagan maqbara ichida bo'lib, mahalliy uslubga xos me'moriy ko'rinishga ega. Ushbu maqbara parallelepiped shaklida gumbazli qilib qurilgan.[3]

"Beshpanja ziyoratgohi" – Ko'li-Qubbondan sizib o'tuvchi suvlar 5ta tarmoqdan oqib tushadi. Rivoyatlarga ko'ra Xazrat Ali daryo suvini qilichi bilan kesib, to'g'on hosil qilib, suv chiqib turishi uchun besh panjasini urgan ekan.

"Oltin beshik ziyoratgohi" ham tabiiy sakral obyektda joylashgan bo'lib, Ko'li -Qubbonning yuqorisida, tik qoyada joylashgan, degan rivoyatlar bor. Ko'li Qubbon ham o'ziga xos manzara, tabiiy go'zalligi hosilasi bo'lishi bilan birgalikda insonlar uchun muqaddas sakral hudud hisoblanadi. Ko'lining rekreatsiya va turistik salohiyati yuqori, kelib chiqishiga ko'ra tabiiy jarayonlarga bog'liq bo'lgan ko'l, asrlar davomida sakrallashtirilgan va muqaddas ziyoratgohga aylantirilgan.

"Qaynar buloq ziyoratgohi" – mazkur sakral obyekt Beshariq tumaninig Qoraqo'yli qishlog'ida joylashgan. Tabiiy sakral obyekt sifatida bo'loqning muqaddaslashuvi va ziyoratgohga aylanishida uning suvini quloq og'rig'iga davo sifatida foydalanishidir. Shuningdek buloq suvida baliqlar yashagan, ularni muqaddaslashtirib, ovlash ta'qiqlangan.[1]

"Chur-chur momo ziyoratgohi" - Qadimiy Chodak qishlog'i to'rt ming yillik tarixga ega. Qishloq Markaziy Osiyo qishlog'ining an'anaviy shaklini saqlab qolgan. Chodak o'zining bog'lari, yong'oqzorlari va buloqlari bilan mashhur. Ammo qishloqning diqqatga sazovor joyi – "Yig'layotgan qoyatosh". Bu joy o'zining go'zalligi sahro o'rtasidagi ko'kalamzorga o'xshaydi. Qadimgi davrlarda savdo karvonlari shu erda to'xtab, harbiy yo'llar ham shu joy orqali o'tgan. Aynan shu joydan Iskandar Zulqarnayn ham o'z qo'shini bilan o'tgan. Zulqarnayndan so'ng bu joy mashhur bo'lib, Kushon podsholigining markazlaridan biriga aylangan. "Yig'layotgan qoyatosh" - bu kichik tog' shakllanishi bo'lib, uning tepasida qorlik joylashgan.

"Bibiona ziyoratgohi"- "Bibi ona" yodgorligi, bu erdagi barcha ziyoratgohlarning debochasi hisoblanadi. Bu erda, kech bronza davriga tegishli bo'lgan "Bibionamozor" arxeologik yodgorligi joylashgan. Yodgorlik Chust tumanida joylashgan bo'lib, 4,5 gektar maydonni egallaydi. Qadimiy

GEOGRAFIYA

yodgorlik hududida, "Bibi Ona-qaynar buloq" muqaddas bulog'i joylashgan. Buloq yonida, yodgorlikning qadimiy tarixini tasdiqlovchi ko'plab topilmalar topilgan. "Bibi ona" yodgorligi, Chustning barcha buloqlarining debochasi hisoblanadi. [1]

"Daxyakota ziyoratgohi" Daxyakota ziyoratgohi Namangan viloyati Uychi tumani Jiydakapa qishlog'ida joylashgan. "Muborak Xaj taassurotlari", "Qissasul Anbiyo" asarlarida Daxyakota ziyoratgohi tarixi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu kitobda yozilishicha, Ko'hna Namangan yangi yo'lining ma'lum qismida bu erga tashrif buyuruvchilar ziyorat qilish maqsadida kelishgan. Yana bir rivoyatga ko'ra, Daxyakotaning kelib chiqishlari payg'ambarimiz avlodlariga borib taqaladi deb ma'lumot beriladi.

"Buloqmozor ziyoratgohi" Ushbu ziyoratgoh joylashgan hudud, ya'ni Buloqm ozor ziyoratgohi Norin tumani Sirdaryoning chap qirg'og'ida, o'zining tarixiy diqqatga sazovor joylari bilan viloyatning sharqiy qismida joylashgan. Ular orasida Buloqmozor, Halqulobod, Koresmozortepa, G'ishtmozor, German-Qo'rg'oncha, Qozoqovul, Shaydon, Uchtepa, Qo'rg'ontepa kabi tarixiy arxeologik yodgorliklar mavjud. Bu hududga tashrif buyurgan sayyohlar nafaqat tarixiy obidalar bilan tanishishlari mumkin, balki diniy va ekologik turizm yo'nalishida ham sayohat qilishlari mumkin. Chunki hudud O'rta Osiyoning Sirdaryo viloyati Farg'ona vodiysidan oqib o'tuvchi Sirdaryo havzasining bir qismini tashkil etuvchi Qoradaryo va Norin daryolari daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi.

"Baliqliko'l ziyoratgoh" O'zbekiston moddiy va madaniy me'rosining ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan. "Baliq ko'l" ziyoratgohi baliqlar yashaydigan noyob ko'l. Ushbu noyob ko'l hech qachon muzlamaydigan suv manbaidan paydo bo'lgan. Uning suvini bemalol ichish mumkin. Ushbu ko'l Sulton Hazrati Uvays Qaroniy ziyoratgohi majmuasiga kiradi. Uning yonida 1500 nafar odamga mo'ljallangan masjid bor. Shuningdek, so'fiylik ta'limotida alohida o'rin tutgan Uvays Qaroniy qabri ham joylashgan. [1]

Namangan viloyatining Chortoq tumani aholisi Uvays Qaroniyning asl qabrini O'zbekistonda, aynan Baliq ko'lida deb hisoblashadi. Hazrati Uvays dunyo tashvishidan voz kechib, Farg'ona vodiysiga kelgan va o'z ta'limotini davom ettirgan. Onalarining qabri, ya'ni Bibi Naima ziyoratgohi shu yaqindagi do'ngliklardan birida joylashgan. Ushbu majmuaning alohida diqqatga sazovor joyi — bu noyob suv resurslaridir.

"Bibi Naima ona ziyoratgohi" Bibi Naima Ona ziyoratgohi Chortoq tumanida "Baliq ko'l" ziyoratgohi atrofida joylashgan. "Sulton Uvays Qaroniy" maqbarasidan tashqari "Bibi Naima ona" maqbarasi va haftaning har juma kuni tongda sut rangiga kiruvchi "Sutli buloq" ("Sirli buloq" deb ham yuritiladi) ziyoratgohlari ham mavjud. Hovuz shaklida yirik qo'l ko'rinishida. Hovuz, Avliyo Sulton Uvays qaroniyning onasi - Bibi Naima Ona maqbarasining quyi qismida joylashgan. Ushbu tarixiy yodgorlik, XII-XIII — asrlarda barpo etilgan.

O'n bir Ahmad ziyoratgohi Ziyoratgoh tarixi O'n bir Ahmad hazratlari fiqh va tariqat ahlidan bo'lib, O'n bir Axmad hazratlari zehnlari o'tkir bo'lib, o'qigan narsalarini bir martada eslab qolish qobiliyatiga ega bo'lganlar. O'n bir Axmad hazratlari 21 yoshlarida "Qubbat ul — Islom" deb ulug'langan Buxoroi Sharifdagi oliy diniy madrasaga o'qishga kiradilar. Bu madrasa shaharning chetrog'ida joylashgan bo'lib, hozirgacha saqlanib qolgan. Olti yillik tahsildan so'ng ular shu madrasada qolib, o'n yil mudarrislik qilganlar. Buxoroga qaytib, shahar markazida joylashgan katta Jome' masjidida imom xatiblik qiladilar. U kishi turkiy, forsiy, arabiy tillarni bilganlar. Mustaqillikdan so'ng 1992-1993-yillarda O'n bir Ahmad hazratlarining maqbaralari hashar yo'li bilan qurib bitkazilgan.

2021-yilga kelib "O'n bir Ahmad" ziyoratgohi majmuasi atrofini istirohatgohga aylantirish maqsadida keng ko'lamli ko'klamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. "O'n bir Ahmad" ziyoratgohi kompleksi - ziyorat turizmi markaziga aylanmoqda.[8]

Farg'ona vodiysi qadamjolari va ziyoratgohlarida turizm va rekreatsiyani rivojlantirish uchun:

- Transport xizmatlarini rivojlantirish (maxsus avtobuslar, taksilar);
- Mehmonxonalar, kafe va boshqa xizmat ko'rsatish joylarini qurish.
- Mobil ilovalar va veb-saytlar orqali ziyoratgohlar haqida batafsil ma'lumot berish;
- Onlayn bron tizimlarini joriy etish;
- Virtual sayohatlar va 3D ekskursiyalar tashkil qilish.
- Madaniy tadbirlar va festivallar o'tkazish orqali turizmni rag'batlantirish.

-Sog'lomlashtirish yo'nalishida tabiatdan foydalanish;
-Sport va dam olish yo'nalishlarini rivojlantirish;
-Madaniy va tarixiy ekskursiyalarni tashkil qilish kabilarni joriy qilish orqali hududda diniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

XULOSA

Ziyorat va rekreatsion turizm O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega yo'nalish hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo'nalishlarda ilmiy asoslangan strategiyalar, xalqaro tajriba, innovatsion yondashuvlar asosida islohotlar olib borilsa, O'zbekiston ziyorat va rekreatsion turizm markazlaridan biriga aylanishi mumkin.

Farg'ona vodiysi qadamjolari va ziyoratgohlarida turizm va rekreatsiyani rivojlantirish – hududning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy salohiyatini oshirishning muhim yo'nalishidir. Buning uchun:

Infratuzilma yaxshilanishi;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng qo'llanilishi;

Mahalliy hamjamiyatning faol ishtiroki;

Ekologik va madaniy muhitning muhofazasi; zarurdir. Bu esa nafaqat turizmni rivojlantiradi, balki Farg'ona vodiysining butun O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rnini mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдулахатов Н. *“Фарғона водийси аҳолиси турмуш тарзида зиёратнинг ўрни”*. Тарих фанлари номзоди диссертацияси. - Тошкент, 2008.
2. Бойтураев О.У. *“Фарғона водийсида туризм соҳаси рақобатбардошлигини ошириш имкониятлари”*. Иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.- Фарғона, 2023.
3. Sayfi Kamol. *“Shohimardon – muqaddas maskan”*; – Farg'ona: “Adolat”, 2019. – 96 b.
4. Жўрабоев А. *“Зиёрат туризмни ривожлантиришда миллий қадриятларнинг аҳамияти”* // “Ижтимоий фанлар”, №4, 2021. – Б. 45–48.
5. Рахмонова М. *“Ўзбекистонда туризм ва рекреация ресурсларининг минтақавий хусусиятлари”*. // “Жамият ва бошқарув”, №1(55), 2022. – Б. 78–84.
6. Karimov D., Tursunov A. *Cultural and Spiritual Tourism Development in the Ferghana Valley*. // Journal of Central Asian Studies, Vol. 10, Issue 2, 2023. – P. 112–120.
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *“Turizm faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari”* (2023-yil yakunlari bo'yicha hisobot). www.stat.uz
8. Mamatov B. *“O'zbekistonda ziyoratgohlar geografiyas”i*. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 150 b.